

## O'zbekiston Respublikasi chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026-yil yanvar-mart oylari uchun dastlabki ma'lumot


- I. Chakana savdo tovar aylanmasi
- II. Ulgurji savdo tovar aylanmasi
- III. Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo tovar aylanmasi
- IV. Uslubiy ma'lumotlar
- V. Aloqador boshqa havolalar

### I. Chakana savdo tovar aylanmasi

2026-yil 1-aprel holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 86 965 tani tashkil etib, shundan faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 438 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 86 527 tani tashkil etdi.

2026-yilning yanvar-mart oylarida respublikaning chakana savdo tovar aylanmasi 123 961,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 25,4% ga o'sdi. Jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi 21 115,5 mlrd so'mni (o'sish sur'ati – 128,0%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi esa 102 846,4 mlrd so'mni tashkil etdi (o'sish sur'ati – 124,9%).


#### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari 2026-yil yanvar-mart oylari



**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Chakana savdo tovar aylanmasi hajmi \(oylik\)](#)

### Chakana savdo hajmida yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi bo'yicha dinamikasi




## II. Ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026-yil 1-aprel holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 53 278 tani tashkil etib, shundan faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 418 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 52 860 tani tashkil etdi.

Respublika bo'yicha 2026-yilning yanvar-mart oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 109 857,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 10,9%ga o'sdi.


Yirik korxonalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 30 692,5 mlrd so'mni (o'sish sur'ati – 104,9%), kichik biznes subyektlarining tovar aylanmasi esa 79 164,9 mlrd so'mni (o'sish sur'ati – 113,4%) tashkil etdi. Respublikada jami ulgurji savdo hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi 72,1 %ni tashkil etdi.

### Ulgurji savdo hajmi dinamikasi 2026-yil yanvar-mart oylari, mlrd so'm



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:  
[Ulgurji savdo hajmi \(oylik\)](#)

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmining o'sish sur'atlari  
2026-yil yanvar-mart oylari



**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**


[Ulgurji savdo hajmi o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

**III. Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo tovar aylanmasi**

2026-yil 1-aprel holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 27 312 tani tashkil etib, shundan faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 135 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 27 177 tani tashkil etdi.

2026-yilning yanvar-mart oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 49 804,5 mlrd so'mni tashkil etdi va 2025-yilning mos davriga nisbatan 8,2% ga o'sdi. Savdo aylanmasining 78,9% ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi, yirik korxonalar ulushi esa 21,1% ni tashkil etdi.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati dinamikasi  
2026-yil yanvar-mart



#### IV. Uslubiy ma'lumotlar

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasining statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, "Milliy hisoblar tizimi – 2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), "Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar" (MDH qo'mitasi, 2011) xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalardan foydalaniladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistik ko'rsatkichlari norasmiy va yashirin iqtisodiyotning statistik baholash natijalari inobatga olingan holda hisoblanadi.

Ba'zi hollarda, jami va tarkibiy qismlar yig'indisi o'rtasidagi kichik tafovutlar ma'lumotlarni yaxlitlash bilan izohlanadi.

#### V. Aloqador boshqa havolalar

[Ulgurji savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasi hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

**Chop etishga mas'ul:**  
Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi boshqarmasi

**Manzil:** 100170, Toshkent,  
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63.  
**Elektron pochta:** info@stat.uz  
Tel.: 71-203-80-00 (1180, 1185)

